THE THEORETICAL PILLARS OF BRITISH GEOPOLITICS: THE HEARTLAND AND RIMLAND THEORIES

Absamatov Mirodil

Student, Third Year, International Islamic Academy of Uzbekistan
Program: International Relations

Tel.: +998 95 701-14-20
E-mail: mirodilabsamatov1404@gmail.com

Scientific Supervisor: Bektosh Berdiyev
Head of the Department of International Relations, PhD, Associate Professor

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the Heartland and Rimland concepts, two significant approaches within classical geopolitical theory. It examines the substance of the Heartland theory proposed by British geographer and geopolitician Halford Mackinder, its role in the global political system, and the geostrategic significance of the Eurasian region. It also analyzes the Rimland theory developed by American scholar Nicholas Spykman, its alternative approach to Mackinder's ideas, and its role in geopolitical competition between maritime and land powers. The article explores the influence of these theories on the evolution of international relations, the global balance of power, and the formation of contemporary geopolitical strategies.

Keywords: geopolitics, Heartland theory, Rimland theory, Halford Mackinder, Nicholas Spykman, Eurasia, geostrategy, maritime power, land power, Atlanticism, international relations.

INGLIZ GEOSIYOSATINING NAZARIY USTUNLARI: HEARTLAND VA RIMLAND NAZARIYALARI

Absamatov Mirodil, *O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi Tel: 95.701-14-20*
Gmail: mirodilabsamatov1404@gmail.com
Ilmiy rahbar: Xalqaro munosabatlar kafedrasi mudiri PhD, dotsent
Bektosh Berdiyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada klassik geosiyosat nazariyasining muhim yo'nalishlari bo'lgan Heartland va Rimland konsepsiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz geosiyosatchisi Halford Makkinder tomonidan ilgari surilgan Heartland nazariyasining

mazmuni, uning jahon siyosiy tizimidagi o‘rni hamda Yevroosiyo makonining geostrategik ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, amerikalik olim Nikolas Spaykmen tomonidan ishlab chiqilgan Rimland nazariyasi, uning Makkinder qarashlariga nisbatan muqobil yondashuvi va dengiz hamda quruqlik kuchlari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada ushbu nazariyalarning xalqaro munosabatlar evolyutsiyasiga, global kuchlar muvozanatiga hamda zamonaviy geosiyosiy strategiyalarning shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *geosiyosat, Heartland nazariyasi, Rimland nazariyasi, Halford Makkinder, Nikolas Spaykmen, Yevroosiyo, geostrategiya, dengiz kuchi, quruqlik kuchi, Atlantizm, xalqaro munosabatlar.*

KIRISH

Geograf olim, tarixchi, siyosiy mutafakkir Halford Jorj Makkinder (1861-1947) anglo-sakson klassik geosiyosat maktabining asosiy siymolari va asoschilaridan biri, o‘z davrining buyuk geosiyosatchisi bo‘lgan.

Makkinder 1904-yilda e’lon qilgan *“Tarixning geografik o‘qi”* maqolasida siyosiy geografiya va geosiyosatga ko‘pgina yangi tushunchalarni olib kirdi, geosiyosatning asosiy qonunlaridan hisoblangan *“tarixning geografik o‘qi”* g‘oyasini ta’riflab berdi. Makkinderning diqqat markazida turgan bu nazariyaning asosiy vazifasi jahon siyosatida buyuk imperiyalarning, birinchi navbatda, Buyuk Britaniyaning gegemonlik rolini, sayyorada uning hukmron pozitsiyasini ta’minlash strategiyasini asoslab berishdan iborat edi.[1]

Makkinder faqat qulay geografik makongina emas, balki geosiyosiy va geostrategik nuqtayi nazardan sayyorada eng o‘rta, markaziy mavqeda joylashuv davlat uchun eng foydali joylashishdir, deb hisoblagan. U o‘z davrining geosiyosiy bilimlariga asoslangan holda, dunyoning geosiyosiy va harbiy-strategik ma’nodagi markazi - Yevroosiyo qit’asi, uning markazi esa “jahonning yuragi” hisoblanishi mumkin bo‘lgan “Heartland” ekanligini da’vo qilib, o‘zining mashhur *“Heartland”* nazariyasini ilgari surdi. Makkinder “Heartland” – Yevroosiyoning quruqlikdagi qismi (hozirgi Sharqiy va G‘arbiy Yevropa, Osiyo va Afrikaning qit’a qismi, Rossiyaning Yevropa qismi va boshqa hududlar) jahonni nazorat etish uchun eng qulay hudud ekani to‘g‘risidagi fikrni asoslashga uringan.[2]

Shved qiroli Karl XII va Napoleon I ning Yevroosiyoning ulkan hududlarini bosib olishga urinishi chippakka chiqqanini, dengiz davlatlarining floti va qo‘shinining bu yerlarga bostirib kirish imkoni yo‘qligini Makkinder “Heartland”ning qulay harbiy-strategik holati bilan izohladi.

Makkinder Jahon oroli ichida joylashgan “Heartland” ning sayyoradagi makonini konsentrik doiralar sistemasi orqali tasvirlagan. U sistema markaziga “tarixning geografik o‘qi”ni yoki

[1] Ziyadullayeva K. Buyuk Britaniya geosiyosati // Oefen.uz.

[2] Маккиндер Х. Географическая ось истории // Политечкая история, 1995, № 5, с. 162.

"markaziy areal"ni joylashtirgan. Undan keyin Yevroosiyo qit'asining sarhadlaridagi yerlarni u "ichki yarimoy"ga (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Turkiya shu yerdan joy olgan), shuningdek "tashqi yarimoy"ga (Buyuk Britaniya, Amerika va Kanada) kiritgan. Uning fikricha, "ichki yarimoy" sivilizatsiyaning jadal rivojlanish mintaqasidir.



1-rasm. 1904-yilda Makkinder tomonidan nashr etilgan "Heartland nazariyasi" xaritasi.

"Heartland" geosiyosiy tuzilmasining farqli xususiyatlari, Sibir, Yevroosiyoning Yeniseydan g'arbda joylashgan yerlari haqidagi geosiyosiy ma'lumotlar va boshqa masalalar Makkinderga qadar ham sayyohlarga ma'lum bo'lgan. Biroq mantiqiy jihatdan *"tarixning geografik o'qi"* nazariyasini ilk marta ayni Makkinder asoslab berdi va rivojlantirdi.[3]

Makkinder sistemasida "Heartland"dan keyin "tashqi doira" (Afrika va boshqa hududlar) turadi. U bu yerga "tashqi yoki orol yarimoyi" deb nom bergan. Mazkur mintaqa geografik jihatdan jahon qit'alaridan chetda joylashishi bilan bir qatorda, madaniy jihatdan ham orqada qoladi. Boshqa tomondan, *"ichki yarimoy"* doimiy ravishda "quruqlik va dengiz qaroqchilari"ning hujumiga giriftor bo'lib turadi. Shuning uchun bu mintaqa aks ta'sir doirasi sifatida sivilizatsiya jadalroq rivojlanadigan mintaqaga aylanadi. Tarix bo'lsa, o'z geografik, qit'a o'qi atrofida aylanadi.

Makkinder XX asr boshida "markaziy mintaqa" va "ichki yarimoy" mamlakatlari o'rtasida muvozanat mavjud bo'lgan, deb hisoblagan. Yevroosiyoning "markaziy mintaqasiga", ya'ni Rossiyaga hujum qilish uchun Angliya, AQSH va Yaponiya kabi dengiz mamlakatlarida yetarli kuch bo'lmagan. Shuningdek, ular Yevroosiyo hududida istilo qilgan strategik

[3] Василенко И. А. *Геополитика* / И. А. Василенко. – М.: Высшая школа, 2003. – С. 113.

jihatdan muhim yerlarini saqlab qolish iqtidoriga ham molik emasdi. Ayni chog‘da dengiz davlatlarining o‘zlari ham, mustamlakalari ham Rossiya va AQSHning bostirib kirishga urinishi xavfidan xoli emasdilar.

Ingliz geosiyosatchisining fikricha, XX asr boshigacha ahvol shunday bo‘lib turdi. XIX asr oxirlariga kelib Rossiyada kapitalizmning kuchli rivojlanishi, temiryo‘l qurilishlarining kengayishi, XX asrning 30-yillarida havo yo‘llari va aviatsiyaning taraqqiy topishi kuchlar nisbatini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Sibir, Uzoq Sharqning tabiiy zahiralari jadal ishga solina boshladi, xom ashyolarni qazib oluvchi va qayta ishlovchi ulkan kombinatlar qurildi, yangi shaharlar qad ko‘tardi, qudratli dengiz bazalari va zamonaviy flotlar barpo etildi, temir yo‘llar va tosh yo‘llarning o‘tkazish qobiliyati ancha yaxshilandi. Bularning hammasi qo‘shinlarni bir strategik punktdan ikkinchisiga ommaviy ravishda ko‘chirish imkonini yaratdi.

Bundan tashqari yangi transport texnologiyalarining paydo bo‘lishi, quruqlikdagi qo‘shinlar sonining ko‘paytirilishi va XX asrning shu kabi boshqa realliklari ham geosiyosiy kuchlar nisbatiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi.Tarix maydoniga chiqqan dengiz davlatlari: Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Fransiya qatoriga XIX asr oxirida Rossiya ham qo‘shildi.

Yuzaga kelgan yangi sharoitda “Heartland” ning ikki katta davlati – Rossiya va Germaniyaning geografik holati va jadal rivojlanishi Makkinderni qattiq tashvishlantirdi. U bu davlatlarning geostrategik manfaatlari va geosiyosiy mantiqning o‘zi istiqbolda Rossiya-Germaniya ittifoqiga olib kelishi mumkin, deb hisobladi. Bu ittifoqda Rossiya yetakchi, Germaniya bo‘lsa, boshqariluvchi davlat bo‘lishi mumkin.

Makkinder boshqa variantni ham istisno qilmagan. Bunga ko‘ra, Rossiya avvaliga Yevroosiyoda, so‘ngra Jahon orolining kengroq mintaqasida to‘la hukmronlikka erishadi va shu bilan uning barcha tabiiy va inson resurslarini o‘z manfaatlariga xizmat qildiradi. Shundan keyin Rossiya qolgan barcha mamlakatlarni ham o‘z manfaatlariga bo‘ysundirib, jahonda o‘z hukmronligini barqaror qila oladi.

Geosiyosatchining fikricha, dengiz davlatlari borgan sari umuman Yevroosiyoga, xususan Rossiyaga qarshilik ko‘rsata olmaydilar. Bu shu bilan bog‘liqki, qit’a ittifoqining hududi kengayishi va uning moddiy bazasi mustahkamlanishi bilan bir qatorda “ichki yarimoy” davlatlarining qudrati zaiflashadi, bu esa ularning halokatiga sabab bo‘ladi.[4]

Makkinder “ichki yarimoy” davlatlarining yana bir ojiz tomoni – dengiz kommunikatsiyalarining zaiflashuvidadir, deb hisoblardi. Yevroosiyo mamlakatlari dengiz yo‘li orqali yuk va qo‘shinlarni tashish ishini to‘sib qo‘yishi, shu bilan ularning ta’minotini, shuningdek metropoliya va mustamlaka orasida texnika, tovarlar, xom ashyo tashishni qiyinlashtirishi mumkin.

Makkinder XX asr boshlarida yirik dengiz floti, rivojlangan temir yo‘l va avtomobil yo‘llari


[4] Маккиндер Х. Географическая ось истории // Геополитика. Антология, М., 2006, с.244-255.

tarmog'iga ega bo'lgan kuchli Rossiyadan xavfsiragan va u bilan Britaniya imperiyasi o'rtasida qachondir ixtilof chiqishini bashorat qilgan. Rossiya tashqi siyosatining "Hindiston" yo'nalishida rivojlanishi mumkinligi taxminini ham istisno qilish mumkin emas. Mana shu sabablarga ko'ra kelajakda Rossiya bilan Britaniya manfaatlari o'rtasida yirik to'qnashuv sodir bo'lishi mumkin.

Makkinder *"Demokratik ideallar va reallik" (1919)* nomli asarida "o'q mintaqasi"ni "Markaziy qit'a" deb ataydi. U tasvirlagan "Qit'a" katta hududni egallaydi. U bu yerga Uzoq Sharqni va Sharqiy Yevropaning qator mamlakatlarini qo'shadi. Makkinder bu kitobida o'zining ***"Kim Sharqiy Yevropani boshqarsa, o'sha "Heartland" ustidan hukmronlik qiladi; kim "Heartland"ni boshqarsa, o'sha Jahon oroli ustidan hukmronlik qiladi; kim Jahon orolini boshqarsa, o'sha jahonga hukmronlik qiladi"*** degan mashhur tezisini asoslab bergan.[5]

2-rasm. 1904- va 1919-yilda Heartland hududining o'zgarishi

Makkinderning asosiy g'oyasi Germaniyaning Rossiya bilan ittifoq tuzgan holda "Heartland"



ni nazorat etishiga mone bo'lishdan iborat edi. Bunday ittifoq o'sha davrda Germaniyani markazlashgan davlatga aylantirgan, va tarixda "temir kansler" deb nom olgan Bismarkning orzusi bo'lgandi. Bismark Germaniyaning Rossiya bilan ittifoqi ulkan tabiiy resurslar, ishchi kuchi, ilg'or texnologiyaga ega bo'lish va kelgusida Britaniya imperiyasini qulatish uchun sharoit yaratadi, deb hisoblagan.

Makkinder Germaniya-Rossiya ittifoqi g'oyasining tahlikasi to'g'risida lo'nda va ochiq-oydin so'zlagan. U ayni shu ittifoqni ko'zda tutib: *"Kim Sharqiy Yevropani nazorat qilsa, u jahonga hukmronlik qiladi"* deb yozgan. Makkinderning bu tezisi keyinchalik, xususan 1917-

[5] Makkinder H. Democratic ideals and Reality. N.Y. 1962, p.113.

yildan so'ng G'arb mamlakatlarida Rossiya atrofida *"sanitar devor"* g'oyasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Biroq, Makkinderning barcha urinishlariga qaramay, Versal sulh shartnomasidan keyin yuzaga kelgan vaziyat, G'arb mamlakatlarining "milliy manfaat" bayrog'i ostida amalga oshirishga uringan va muvaffaqiyatsiz chiqqan urinishlari, davlatlararo yangi munosabatlarning besamaraligi pirovard natijada XX asrning 30-40-yillarida fashizmning jahonga hukmronlik qilish uchun kurash boshlashi bilan yakunlandi. G'arb davlatlari Gitlerni mamnun qilish uchun hukmron mavqelarini 1938-yil sentyabrda Myunxenda Germaniyaga taslim qildilar va butun sayyorani larzaga keltirgan Ikkinchi Jahon urushiga yo'l ochib berdilar.[6]

Makkinder 1942-yilda bosilgan *"Yaxlit dunyo va tinchlikka erishish" ("The Round and Winning of Peace")* nomli monografiyasida geosiyosiy masalalarni, tashqi siyosat va blok ichidagi kuchlarning bo'linishidagi o'zgarishlarni yangicha baholadi. U kelajakdagi global geosiyosiy ixtiloflar "markaziy qit'a" bilan "ichki yarimoy" mamlakatlari orasida ro'y beradi, deb hisobladi. Ko'pgina siyosatshunoslar bu asarni Makkinderning ilmiy-siyosiy vasiyati, deb baholaydilar. Muallif bu asarida G'arb davlatlarini so'zda va amalda hamjihat bo'lib *"atlantik sivilizatsiya"* konsepsiyasini mudofaa etishga chaqirdi. G'arb davlatlari NATO harbiy-siyosiy blokini barpo etish bilan Makkinderning vasiyatini amalga oshirdilar.

1943-yilda Makkinder o'z geosiyosiy mulohazalari va modeliga tuzatishlar kiritdi. U yuzaga kelgan yangi voqelik – SSSR, Buyuk Britaniya va AQSH ittifoqini, bu ittifoqning mushtarak geostrategik maqsadlarini va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olishga majbur bo'ldi. Uning yangi formulasida "Heartland"ga endi Shimoliy Atlantika (Atlantika okeanining shimoliy qismi) ham kiritildi. Bu yerga G'arbiy Yevropa, Angliya va Karib havzasi mamlakatlari bilan birga Amerika ham kiritildi.

Rimland nazariyasi: Spaykmen g'oyalari va dengiz kuchi konsepsiyasi

Amerikalik olim, xalqaro munosabatlar bo'yicha professor ***Nikolas Spaykmen (1893-1943)*** Mehenning *"pragmatik geosiyosat"* nazariyasining izchil davomchilaridan biri bo'ldi. U geosiyosatga tabiiy muhitning davlat hayotiga, relyefning milliy xarakterga ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida qarashga qarshi chiqdi va *"davlatga samarali xalqaro siyosat strategiyasini tayyorlashga imkon beruvchi analitik metod va amaliy tafakkur sifatida"* qaraydigan pragmatik yondashuv tarafdori bo'ldi. Shu konsepsiyaga muvofiq, uning barcha tadqiqotlari sof pragmatik xarakterda bo'ldi.

Spaykmen davlat siyosiy qudratining o'nta asosiy mezonini ta'kidlagan edi.

hudud sathi	ijtimoiy integratsiyaning darajasi
chegaralar	moliya qudrati

[6] https://www.edrawmind.com/mind-maps/35929/schools-of-geopolitical-thought

aholi soni	etnik birlik
foydali qazilmalarning mavjudligi	siyosiy barqarorlik
iqtisodiy va texnologik taraqqiyot darajasi	milliy ruh


Muallifning fikricha, agar davlatning geosiyosiy imkoniyatlarining qiymati bu mezonlarga javob bermasa, u holda bu davlat o‘z suverenitetining bir qismidan voz kechishga majbur bo‘ladi. Spaykmen doktrinasining amaliy mohiyati AQSH tomonidan Yevroosiyo: Yevropa, arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo va shu kabilar hududining sohil bo‘ylarini qattiq nazoratga olishini tashkil qilishdan iborat. Uning aytishicha, bu muhim mintaqani qattiq nazorat qilishgina qit’a va dengiz kuchlari kurashida uzil-kesil g‘alabaga olib keladi.

Yevroosiyo qit’asining g‘arbidan sharqiga uzangan *“hoshiya ichi yarimoyi”* mintaqasini Spaykmen Yevroosiyo ***“Rimlandi”*** *(“rimland” – inglizcha so‘z bo‘lib, “rim” – “chegara”, “chekka”, “land” – “yer”, “mamlakat” demakdir)* deb atadi. Angliyadan Yaponiyagacha, Shimoliy qutbdan Janubiy qutbgacha uzangan quruqlikdan iborat bu ulkan hududni Spaykmen jahonning buyuk dengiz yo‘llarini nazorat etishga imkon beradigan geostrategik makon deb baholagan.[7]

Spaykmen o‘zidan oldingilar singari, jahonni geosiyosiy tomondan ikki qismga – “Heartland” va “Rimland”ga bo‘ldi. Biroq, Spaykmenning fikricha, jahonga hukmronlikka erishishda, Makkinder aytganiday, “Heartland” emas, ayni “Rimland” hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday qilib, Spaykmen Makkinderning “Heartland”ning roli to‘g‘risidagi nazariyasi va formulasini o‘zining “Rimland” formulasi bilan almashtirgan: ***“Kim Rimlandga hokim bo‘lsa, u Yevroosiyoda hukmronlik qiladi, kim Yevroosiyoda hukmron bo‘lsa, jahon taqdiri uning qo‘lida bo‘ladi”.***[8]

Spaykmen Makkinder ko‘chmanchilarning tarixdagi rolini haddan tashqari oshirib yuborgan, deb hisoblagan. U “ichki yarimoy”, Makkinder da’vo qilganidek, “quruqlikdagi ko‘chmanchilarning bosimi natijasida emas, balki sohil zonalarining o‘z musbat turtkisi natijasida shakllangan va rivojlangan” degan. Shu tariqa Spaykmen geosiyosiy doiralarda “Rimland” konsepsiyasining asoschisi sifatida tanildi.

[7] Spykman N. America’s Strategy World Politics. Hamdem, 1942, p.41.
[8] Дугин А.Г. Основы геополитики. Геополитические будущее России.М., 2000, с.62-63.



3-rasm. N. Spaykmenning "Rimland" va "Heartland" xaritasi.

Amerikalik geosiyosatchi keyinchalik geosiyosiy adabiyotlarda "atlantizm" deb nom olgan geosiyosiy konsepsiyaning yetakchi mafkurachilaridan biri ham bo'ldi. U geosiyosiy asarlarida jahon qudratining uchta markazini ajratib ko'rsatgan:

- *Shimoliy Amerikaning Atlantika okeani qirg'oqlari;*
- *Yevropa sohillari;*
- *Yevroosiyoning Uzoq Sharqi.*

Spaykmen kelgusida jahonda *"Atlantika bloki"* (AQSH va Yevropa mamlakatlarining birligi) hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisoblagan. Ayni chog'da u Hindiston jahon geosiyosatining to'rtinchi markaziga aylanishi mumkinligini taxmin qilgan. Spaykmen geosiyosiy adabiyotga birinchi bo'lib *"Markaziy okean"* tushunchasini olib kirdi.[9] Muallifning aytishicha, agar Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda O'rtayer dengizi markaziy okean rolini o'ynagan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu rolni yangi geosiyosiy reallik bo'lgan Atlantik okeani va "Atlantika qit'asi", ya'ni AQSH va G'arbiy Yevropa o'ynamoqda.[10]

Spaykmen jahonga hukmronlik uchun kurash jarayonida Yevropani AQSHning iqtisodiy, harbiy, intellektual sherigi deb hisoblagan. Uning fikricha, AQSH kuchaygan sari geosiyosiy jarayonlarda Yevropaning roli, Yevropa davlatlarining siyosiy suvereniteti pasaya boradi. Qit'ada hokimiyat asta-sekin butun "atlantika makoni" yo'lboshchilarini birlashtirgan alohida tuzilma qo'liga o'tadi. Bu tuzilmada asosiy rolni AQSH o'ynaydi. Spaykmen, shuningdek, butun sayyora miqyosida "anakonda" siyosatini amalga oshirish zarurligi g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surdi, bu siyosat yordamida Afrika, Osiyoning sohil bo'yi

[9] Spykman N. *America's Strategy in World Politics*. – New York: Harcourt, Brace & Co., 1942. – P. 40-45.
[10] https://www.grandars.ru/college/sociologiya/mirovaya-sistema.html

hududlarini, arab mamlakatlari, Hindiston va Xitoyni nazorat etish va bo‘g‘ish kerakligini asoslashga urindi. Umuman, Spaykmen xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish tarafdori bo‘lgan. Uning fikricha, jahon geosiyosatida kuch har qanday siyosiy tartibning zaruriy tarkibiy qismidir. Xalqaro iyerarxiya dunyosida tashqi siyosatning maqsadi, eng avvalo, davlatning qiyosiy kuch-qudrat pozitsiyasini yaxshilashga yoki, hech bo‘lmaganda, saqlab qolishga qaratilmog‘i darkor. Muallifning aytishicha, davlatning kuchi, pirovard natijada, uning muvaffaqiyatli urush olib borish qobiliyatini tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Halford Makkinder tomonidan ishlab chiqilgan Heartland nazariyasi klassik geosiyosatning eng muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, Yevroosiyo qit’asining markaziy qismi – “Heartland” hududi jahon siyosiy va strategik muvozanatini belgilovchi asosiy makon hisoblanadi. Makkinderning mashhur tezisiga muvofiq, Sharqiy Yevropani nazorat qilgan kuch Heartland ustidan hukmronlik qiladi, Heartland ustidan nazorat esa Jahon orolini, demakki butun dunyoni nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu g‘oya XX asr geosiyosiy tafakkuriga katta ta’sir ko‘rsatgan hamda ko‘plab strategik qarorlar va siyosiy konsepsiyalarning shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Nikolas Spaykmen esa Makkinder nazariyasini qayta ko‘rib chiqib, geosiyosiy ustunlikning kaliti quruqlik markazida emas, balki Yevroosiyo qit’asining sohilbo‘yi hududlarida joylashgan “Rimland” mintaqasida ekanligini asoslab berdi. Uning fikricha, aynan Rimland ustidan nazorat Yevroosiyoni, demakki jahon siyosatini boshqarish imkonini yaratadi. Spaykmen konsepsiyasi dengiz kuchlari strategiyasining ahamiyatini kuchaytirib, Atlantika makonining geosiyosiy rolini yanada mustahkamladi.

Umuman olganda, Heartland va Rimland nazariyalari jahon geosiyosiy tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu konsepsiyalar davlatlarning tashqi siyosiy strategiyasini, geostrategik ittifoqlarni va global kuchlar muvozanatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ham Yevroosiyo makonidagi geosiyosiy raqobatni tahlil qilishda ushbu nazariyalar dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Ziyadullayeva K. Buyuk Britaniya geosiyosati // Oefen.uz.
2. Василенко И. А. *Геополитика* / И. А. Василенко. – М.: Высшая школа, 2003. – С. 113.
3. Маккиндер Х. Географическая ось истории // Геополитика. Антология, М., 2006, с.244-255.
4. Makkinder H. Democratic ideals and Reality. N.Y. 1962, p.113.
5. https://www.edrawmind.com/mind-maps/35929/schools-of-geopolitical-thought
6. Дугин А.Г. Основы геополитики. Геополитические будущее России.М., 2000, с.62-63.

7. Spykman N. *America’s Strategy in World Politics*. – New York: Harcourt, Brace & Co., 1942. – P. 40-45.
8. https://www.grandars.ru/college/sociologiya/mirovaya-sistema.html